

# **“UMS” MChJ Kontragentlari va Biznes hamkorlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturi**

## **I. Kirish**

## **II. Korrupsiyaning asosiy tushunchalari va turlari. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari va yo‘nalishlari.**

2.1. Korrupsiya tushunchasi va turlari.

2.2. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari.

2.3. “UMS” MChJning korrupsiyaga qarshi siyosati va korrupsiyaga qarshi kurash talablari.

## **III. Korrupsiya xavflari va korrupsiyaga qarshi kurash tizimining elementlari**

3.1. Korrupsiya xavflari tushunchasi.

3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari.

## **IV. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik**

## **V. Amaliy vaziyatlar**

## **VI. Xulosa**

### **I. Kirish**

«UMS» MChJ (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) halollik, shaffoflik va korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlik tamoyillariga amal qiladi.

Mazkur dastur quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan:

- Kontragentlar va Biznes hamkorlarning O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik talablari bo‘yicha xabardorligini oshirish;
- Biznesni etik tarzda yuritishning yagona standartlarini shakllantirish;
- «UMS» MChJ bilan hamkorlik jarayonida korrupsion xavflarning oldini olish;
- «UMS» MChJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishini ta‘minlash.

Kompaniya Kontragentlar va Biznes hamkorlardan quyidagilarni kutadi:

- Amaldagi qonunchilikka rioya qilishni;
- Halol raqobat tamoyillariga amal qilishni;
- Korrupsion harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikni;
- Ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida o‘z vaqtida xabar berishni;
- Korrupsion xavflarning oldini olish choralarini ko‘rishni.

Ushbu dastur bilan tanishib chiqib, Kontragent va Biznes hamkor, shuningdek, <https://company.mobi.uz/upload/iblock/956/ikz2gekobbvx78d140c2x3r4wpu0jhz7/Korrupsiyaga-qarshi-kurashish-siyosati.pdf> saytida joylashtirilgan “UMS” MChJning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan tanishganligini tasdiqlaydi.

## **II. Korrupsiya tushunchasi va turlari**

### **2.1. Korrupsiya tushunchasi va turlari**

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Manfaatlar to'qnashuvi – shunday holatki, unda shaxsning shaxsiy manfaatdorligi qabul qilinayotgan qarorlarning xolisligi va mustaqilligiga ta'sir ko'rsatishi yoki shaxsiy manfaatlar bilan Kompaniya manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar:

- Oz miqdorda talon-toraj qilish (30 BHMgacha);
- Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish;
- Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, shuningdek, u tomonidan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaatdorlikni noqonuniy tarzda olish.

Korrupsiya jinoyatlari:

- Pora olish va pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish;
- Tijoratda pora evaziga og'dirib olish;
- O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish;
- Firibgarlik;
- Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish;
- Mansab soxtakorligi;
- Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish.

## **2.2. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.**

2008-yilda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasiga qo'shildi.

2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419-son Qonuni qabul qilindi, 2024-yil 5-iyunda esa O'zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi O'RQ-931-son Qonuni qabul qilindi.

Shuningdek, bu sohada Prezidentning farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining hujjatlari qabul qilinmoqda, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.05.2019 yildagi PF-5729-son «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2020 yildagi PF-6013-son «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.06.2020 yildagi PQ-4761-son «O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2021 yildagi PF-6257-son «Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.07.2021 yildagi PQ-5177-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.01.2022 yildagi PQ-81-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2023 yildagi PF-200-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.04.2025 yildagi PF-71-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 30.12.2025 yildagi PF-270-son «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» va boshqalar.

### **2.3. «UMS» MChJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va korrupsiyaga qarshi talablari.**

Kompaniyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Kompaniyaning ushbu sohadagi asosiy tamoyillarini mustahkamlovchi asosiy ichki hujjatlardan biri Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bo‘lib, unda «UMS» MChJning barcha xodimlari rioya qilishi shart bo‘lgan xulq-atvor standartlari bayon etilgan. Siyosat «UMS» MChJning biznes hamkorlariga ham tatbiq etiladi. Kompaniya biznes hamkorlaridan ushbu Siyosatga amal qilishini yoki shunga o‘xshash siyosatlarni qo‘llashini kutib qoladi.

#### **Korrupsiyaga qarshi talablar:**

##### **Amaldagi qonunchilikka rioya qilish**

Amaldagi qonun hujjatlariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga muvofiq faoliyatni amalga oshirish.

Qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari – O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro korrupsiyaga qarshi qonunchilik.

##### **Korrupsion harakatlarni taqiqlash**

Kontragentlar va biznes hamkorlarga quyidagilar taqiqlanadi:

- pora taklif qilish, va’da berish, berish yoki olish;
- noqonuniy to‘lovlarni amalga oshirish;
- korrupsion harakatlarni sodir etish uchun vositachilardan foydalanish;
- asossiz imtiyozlar taqdim etish;
- Kompaniya xodimlariga noqonuniy ta’sir o‘tkazish;
- ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish maqsadida to‘lovlarni amalga oshirish;
- korrupsion harakatlarni yashirish yoki niqoblash.

Quyidagilardan qat’i nazar har qanday korrupsion harakatlar taqiqlanadi:

- summa;
- manfaat taqdim etish shakli;

- o‘zaro hamkorlik usuli;
- vositachilar ishtiroki.

### **Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik**

Kontragentlar va biznes hamkorlar quyidagilarga majbur:

- manfaatlar to‘qnashuvi holatlaridan qochish;
- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma‘lumotlarni o‘z vaqtida oshkor qilish;
- Kompaniya xodimlari bilan qarindoshlik yoki boshqa aloqalar mavjudligi haqida xabar berish;
- shaxsiy manfaatlarning biznes qarorlariga ta‘sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Manfaatlar to‘qnashuviga misollar:

- qarindoshlarning xarid jarayonlarida ishtirok etishi;
- affillangan kompaniyalarga ustunlik berilishi;
- maxfiy ma‘lumotlarning uzatilishi;
- shaxsiy manfaatdorlik mavjud bo‘lgan hollarda qaror qabul qilishda ishtirok etish.

### **Sovg‘alar va vakillik xarajatlari**

Sovg‘alar, mehmondo‘stlik belgilari va vakillik xarajatlari:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Kompaniyaning lokal hujjatlariga muvofiq bo‘lishi;
- oqilona va asoslantirilgan bo‘lishi;
- qabul qilinayotgan qarorlarning xolisligiga ta‘sir ko‘rsatmasligi;
- noqonuniy ta‘sir ko‘rsatilayotgani haqidagi taassurotni yuzaga keltirmasligi lozim.

Quyidagilar taqiqlanadi:

- pul ko‘rinishidagi sovg‘alarni taqdim etish;
- xarid tartib-taomillari davrida sovg‘alar taqdim etish;
- qonunchilik va Kompaniyaning lokal hujjatlari talablarini buzgan holda sovg‘alar taqdim etish;
- vakillik xarajatlarini yashirish.

### **Davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik**

Davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida quyidagilar taqiqlanadi:

- noqonuniy mukofotlar taqdim etish;
- norasmiy to‘lovlarni amalga oshirish;
- noqonuniy ta‘sir ko‘rsatish uchun vositachilardan foydalanish;
- mansabdor shaxslar bilan o‘zaro aloqalar haqidagi ma‘lumotlarni yashirish.

## **III. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari**

### **3.1. Korrupsiyaviy xavf tushunchasi. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va oldini olish.**

Korrupsiya xavfi - shaxsning o‘z mansab mavqeidan moddiy yoki nomoddiy foyda olish maqsadida Kompaniyaning qonuniy manfaatlariga zid ravishda foydalanish ehtimoli.

“UMS” MChJning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga ko‘ra, korrupsiya xavfi “UMS” MChJ nomidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab xodimlar yoki uchinchi shaxslarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari ehtimoli hisoblanadi.

Kompaniya rejalashtirilgan davriylikda korrupsiyaviy xavflarni baholashni amalga oshiradi va ularni minimallashtirish bo'yicha samarali profilaktika choralarini ishlab chiqadi, shu jumladan Korrupsiyaviy xavflar xaritasini va Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi.

### **3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi**

«UMS» MChJ ISO 37001 xalqaro standarti talablari va riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini amalga oshiradi.

Tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki korrupsiyaga qarshi hujjatlar;
- korrupsion xavflarni baholash tartib-taomillari;
- kontragentlarning ishonchliligini tekshirish;
- korrupsiyaga qarshi o'qitish;
- ichki nazorat va monitoring;
- qoidabuzarliklar haqida xabar berish kanallari;
- qoidabuzarliklarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash;
- korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarni davriy qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish.

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas'ul bo'linma belgilangan.

#### **Kontragentlarni tekshirish**

Kontragentlar va Biznes hamkorlar bilan o'zaro hamkorlikda Kompaniya o'zaro munosabatlar xususiyati, korrupsion xavf darajasi, mulkchilik tuzilmasi, ishbilarmonlik obro'si hamda korrupsiyaning oldini olish uchun ahamiyatga ega boshqa omillarni hisobga olgan holda riskka yo'naltirilgan yondashuvni qo'llaydi.

#### **Biznes hamkorlarni o'qitish va xabardor qilish**

«UMS» MChJ shuningdek Kontragentlar va biznes hamkorlarni amaldagi korrupsiyaga qarshi talablar hamda Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi tamoyillari haqida xabardor qilishni ta'minlaydi.

Kontragentlar va biznes hamkorlar:

- mazkur Dastur bilan tanishadilar;
- Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi talablariga rioya qiladilar;
- o'z xodimlari va vakillari tomonidan amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydilar.

#### **Qoidabuzarliklar haqida xabar berish**

Kontragentlar va biznes hamkorlar quyidagilar haqida xabar berishlari shart:

- korrupsiya holatlari;
- korrupsion harakatlarga undashga urinishlar;
- manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi talablarning boshqa buzilishlari haqida.

Xabarlar quyidagi kanallar orqali yuborilishi mumkin:

- Ishonch telefoni orqali:
  - 0870 - Mobiuz abonentlari uchun (qo'ng'iroq bepul)
  - (+998) 97 780 0909 - boshqa mobil operatorlardan va statsionar raqamlarga qo'ng'iroqlar uchun.
- hotline@mobi.uz elektron pochta orqali
- Mobiuz bosh direktorining virtual qabulxonasi;

- Mobiuzning Telegram, Facebook va Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanallari va sahifalari orqali.

Kompaniya murojaatlarning maxfiylikni hamda qoidabuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan shaxslarga nisbatan ta'qib qilinmasligini ta'minlaydi.

#### **IV. Korrupsiyaviy huquqbuzarlik uchun belgilangan javobgarlik**

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida quyidagi javobgarlik turlari belgilangan:

- ma'muriy;
- fuqaroviy-huquqiy;
- jinoiy javobgarlik.

Javobgarlik choralari quyidagilar bilan belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari.

#### **V. Amaliy vaziyatlar**

Vaziyat 1

Xodim shartnomani kelishishni tezlashtirish uchun "mukofot" berishni so'ramoqda.

To'g'ri harakatlar:

- pul mablag'larini berishni rad etish;
- vaziyat haqida Kompaniyaning xabar berish kanallari orqali ma'lum qilish.

Vaziyat 2

Kontragent xizmatlarni amalda ish bajarilmagan holda rasmiylashtirishni taklif qilmoqda.

To'g'ri harakatlar:

- bunday sxemada ishtirok etishni rad etish;
- aniqlangan xavf haqida Kompaniyani xabardor qilish.

Vaziyat 3

Kontragent vakili Kompaniya xodimining yaqin qarindoshi hisoblanadi.

To'g'ri harakatlar:

- manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotni oshkor qilish;
- qarorlar qabul qilinishining shaffofligini ta'minlash.

Vaziyat 4

Shartnomada ko'rsatilmagan uchinchi shaxs hisob raqamiga to'lov amalga oshirish taklif qilinmoqda.

To'g'ri harakatlar:

- to'lovni amalga oshirishni vaqtincha to'xtatish;
- rasmiy tushuntirishlar va tasdiqlovchi hujjatlarni so'rash;
- vaziyat haqida Kompaniyaning mas'ul bo'limiga xabar berish.

#### **VI. Xulosa**

Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat qonuniy majburiyat, balki ishonch, mas'uliyat va qonunchilikka amal qilishga asoslangan barqaror biznesning eng muhim tarkibiy qismidir.

Halollik tamoyillariga birgalikda rioya qilish shaffof, barqaror va etik biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur Dastur talablariga rioya qilish ISO 37001 xalqaro standartiga muvofiq bo'lgan "UMS" MChJ korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimining samarali faoliyatini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi.

Dastur qonunchilikdagi o'zgarishlar, korrupsion xavflarni baholash natijalari hamda korrupsiyaga qarshi choralarni qo'llash amaliyotini inobatga olgan holda davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi.